

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ALOQA, AXBOROTLASHTIRISH
VA TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI DAVLAT
QO'MITASI**

**TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

KOMPYUTER INJINIRINGI FAKULTETI

KASBIY TA'LIMI YO'NALISHI

IQTISODIYOT NAZARIYASI FANIDAN

MUSTAQIL ISHI

Mavzu: Bozor iqtisodiyotining asosiy iqtisodiy muammolari.

Topshirdi:
Qabul qildi:

Kalenbaev E.
Zakimov A.

NUKUS 2014

Reja:

Kirish

I.Asosiy qisim.

a) Bozor iqtisodiyotining kamchiliklari va iqtisodiyotga davlatning aralashuvi.

b) Davlat organlari tuzilishi va tarkibi.

c) Davlatning iqtisodiyotga ta`sir qilish usullari va vositalari.

d) Korxona va tashqilotlarni davlat ruyxatidan utkazish..

e) Soliq va soliqqa tortish tizimi.

f) Bozor infratuzilmasini davlat tomonidan qo`llab quvvatlash tizimi.

II.Yakuniy qisim.

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar.

KIRISH

Bu mustaqil ishimizga Bozor mexanizmi davlat tomonidan tartibga solishsiz ishlay olmaydi. Davlatning tartibga solishsiz normal bozorning bo'lishi mumkin emas. Bu davlatning xo'jalik yurituvchi subyektlarning faoliyatiga bozor mexanizmining ishlashi uchun normal sharoitlar ta'minlash, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilish maqsadida ta'siridir. Iqtisodiyotning davlat tomonidan tartibga solinishi o'z ichiga turli: byudjet-soliq, pul-kredit, ma'muriy shakllarni oladi. Ma'muriy tartibga solish, masalan, majburan kartellashtirish, korxonalarni ochish uchun ruxsat olish va hokazo kabi choralar yordamida amalga oshiriladi. Byudjet-soliq shaklida tartibga solish byudjetining daromad va xarajat qismlarini tenglashtirishni ko'zda tutadi. Tanqislik bilan moliyalashtirish inflyatsiya jarayonlarini kichraytiradi, ularga turtki va zamin bo'ladi. Shuning uchun davlat byudjetni muvozanatlashtirishga intiladilar, pul-kredit shaklida tartibga solish foiz stavkalarini o'zgartirishni, «ochiq bozor»dagi amallar (operatsiyalar)ni, majburiy bank zaxiralarining me'yorlarini o'zgartirishni o'z ichiga oladi.

Xo'jalik yuritishning bozor tizimiga xos bo'lgan rag'batlar va tamoyillarning samaradorligini ijobiy baholagan holda unga xos bo'lgan salbiy tomonlarni ham inkor etib bo'lmaydi, ular iqtisodni nomo'tadil rivojlanishi tendensiyalari (inflyatsiya, ishsizlik, o'sish sur'atlarining pasayishi), daromadlarning taqsimlanishidagi tengsizlikning kuchayishiga olib keluvchi tendensiyalarni yuzaga keltiruvchi, ijtimoiy ne'matlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan sohalarni rivojlantirish imkoniyatlarini cheklovchi bozor qonunlarining amal qilishning oqibatlaridir.

Bozor iqtisodiyotining kamchiliklari va iqtisodiyotga davlatning aralashuvi

Davlatga bulgan extiyejni tushunish uchun birinchi navbatda bozorning kamchiliklarini kurib chikaylik:

- takror xosil kilib bulmaydigan resurslarni asrashga yerdam bermaydi;
- atrof- muxitning himoya qilishning iqtisodiy mexanizmlariga ega emas;
- jamoa foydalanishi mumkin bulgan tovar xizmatlar ishlab chiqarishga stimul yaratmaydi;
- raqobatni monopoliya o`tib chikish muammosini xal kila olmaydi;
- fanda fundamental tadbikotlarni ta`minlab bera olmaydi;
- mehnat qilish xukukini kafolatlamaydi;
- daromadning adolatli taksimotini ta`minlab bera olmaydi;
- ijtimoiy - zarur tovarlarni ishlab chiqarishga oriyentir olmagan, balki kimni puli bulsa, ushani talab xoxishlarini kondiradi;
- ishsizlik va inflyatsiya kasalliklariga ega bulgan nostabil, siklik rivojlanish jarayeniga ega;

Mana shu kamchiliklarni yumshatish uchun ham davlat kerak. Davlat bozor mexanizmlarini ishlashi uchun sharoitni yaratadigan institutdir. Bozor iqtisodiyotining asosi xususiy mulk bulganligi uchun davlat , birinchi navbatda xususiy mulkni daxlsizligini ta`minlab berishi kerak. Xususiy mulk kafolatlanmasa bozor samarali ishlay olmaydi. Davlat mikro darajada bozor muvozanatiga soliqlar, kvotalar, dotatsiya, subsidiyalar bilan ta`sir kiladi.

Davlatning mikrodarajada aralashuvi odatda zararga olib keladi. Ammo shuni qilish uchun kuyidagi sabablar mavjud:

- a) tashqi omillar.... (siyesiy, xarbiy va boshkalar ham);
- b) ijtimoiy tovarlarni ishlab chiqarish zarurati;
- v) vakt utishi bilan raqobat susayib monopoliyaga olib kelish xavfi;
- g) informatsiyaning tulik bulmaganligi;

Demak, mana shular mikrodarajada davlat iqtisodiyotga aralashuvni talab kiladi. Birok , davlat asosan mikromuammolarni xal qilish uchun zarur. Shuning

uchun asosiy e'tiborni davlatning makroiqtisodiyotdagi roli va vazifalariga tuxtalamiz.

Davlat organlari tuzilishi va tarkibi

Iqtisodiyotni tartibga solishda iyerarxiya shaklida tashqil topgan hukumatning 3 tarmogi – ijro etuvchi (prezident apparati), qonun chiqaruvchi (Oliy majlis) va sud (konstitutsion sud, prokuratura, adliya tizimi) katta rol uynaydi. Bundan tashkari, pul muomalasini tartibga kiritishda Uzbekistonning markaziy bankining uz o'rnini ham bor. Xozirgi Uzbekistonda sovet davlati sarqiti sifatida oldingi vazirliklar va ularning o'rinlarida tuzilgan tarmok korporatsiyalarining roli ham ancha kattadir. Davlatning iqtisodiy siyosatini hayotga tadbik qilishda viloyat va tuman xokimiyatlari ham faol katnashadilar. Keyingi yillarda tadbirkorlarning tugilib kelayetgan uyushmalari ham bu jarayenga katnashmokdalar.

Davlatning roli va funksiyalari iqtisodiyot o'zgarib borishi bilan o'zgarib boradi. Urta asrlarda siyesiy, diniy, xarbiy vazifalar birinchi darajali ahamiyat kasb etgan. Sof raqobat sharoitida davlatning funksiyasi fakat xususiy mulk va bozor mexanizmining ishlashga sharoit yaratishdan iborat bulgan. Totalitar iqtisodiyotda davlatning jamiyatda o'rnini, roli tubdan o'zgaradi. U butun iqtisodiyotning asosiy richaglarini uz kuliga olishga xarakat kiladi. U korxonaning ichki ishlariga nafakat aralashadi, balki uz kuliga olib boshkaradi, nazorat kiladi va xatto rejalashtiradi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida u tubdan o'zgaradi. Xozirgi zamon bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning roli sof raqobat yeki monopolistik kapitalizm davridan ancha murakablashgan.

Xozirgi zamon hukumatning maksadini 3 suz bilan ifodalash mumkin: a) rag'batlantirish; b) barkarorlashtirish; v) adolatni ta'minlash.

Shu maksadga erishish uchun davlatning funksiyasi kelib chikadi:

a) Qonun chiqarish. Avalombor , bozor normal ishlashi uchun xukukiy bazani yaratish zarur. Buning uchun xujalik birliklarini uzlarini tutishlarini belgilovchi qonuniy aktlar kabul qilish kerak. Boshkacha aytganda, ularga uyin

qoidalarini ishlab chikish kerak va ularni buzadigan, rioya kilmaydiganlarni jazolash yullarini ishlab chikish kerak.

Shuni esdan chiqarmaslik kerakki, davlat fakat uyin qoidalarini belgilaydi, u uyinga kup aralashsa uyin buziladi. Davlat rivojlanishga tormoz bulishi mumkin yeki bozorni jadal sur`atda o`shishga yul ochib berishi mumkin.

b) Raqobatni himoya qilish. Oldingi mavzuda kurib utgan edikki, agar davlat (jamiyat) raqobat sharoitini ta`minlab turmasa, uni himoya kilmasa, korxonalar monopol pozitsiyaga ega bulishga intilib, monopoliyani vujudga keltiradi. Shuning uchun davlat raqobat sharoitini himoya qilishi kerak.

Lyudvig Erxardning kuyidagi gapi rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiy siyosati va butun xujalik faoliyatining asosi bulib kolgan :

“Qayerda imkoniyat bulsa usha yerda raqobat, qayerda zarur bulsa tartibga solish”.

Raqobatni himoya qilish uchun davlat xilma - xil instrumentlardan foydalanadi. Ammo bu birinchi navbatda antimonopol siyosat va uning asosi bulgan antimonopol qonunchilikdir. Bundan tashkari davlat kichik va urta korxonalarni rivojlanishini xar xil yullar bilan rag`batlantirishi zarur. Buning uchun davlat

- qonuniy normativ bazani yaratish kerak;
- soliq jixatdan imtiyezlar tizimini ishlab chikishi kerak;
- moliyaviy jixatdan qo`llab - quvvatlash;
- kadrlarni tayyorlab borish;
- informatsion ta`minot;
- ishlab chiqarish darajasini oshirish (davlat hisobidan yangi texnikalar sotib olish, nou-xau, patent...).

v) Tovar va xizmatlarni sotib olish va sotish. Davlat mudofaa, maorif, fan va boshka soxalar uchun tovar va xizmatlarni oldi - sotdi kiladi.

g) Ishlab chiqarish. Hamma davlatlarda ishlab chiqarishning anchagina qismini (10 -12 % eng rivojlangan davlatlarda, qoloq davlatlarda esa ancha kup) uz

kuliga olgan. Masalan, oltin kazib chiqarish, uran, ayrim xarbiy texnikalar, elektroenergiya va xokazolar davlat monopoliyasidadir.

d) Adolatni ta'minlash. Davlat jamiyatda bozor taksimlagan daromadning anchagina qismini kayta taksimlashni uz buyniga oladi. U xar xil transfert tulovlarini (pensiya, stipendiya, nafaka) tulaydi. Shu yul bilan kam daromad kuradiganlarni bozor stixiyasidan qisman himoya kiladi.

ye) Soliq solish. Davlat transfert tulovlariga mablag` topish uchun hamda uzining boshka funksiyalari bajarish uchun mablag`ga ega bulishi kerak. Bu mablag`ni esa davlat axoli va korxonalarga xar xil soliqlar solish orkali yigadi. Afsuski, davlatning xarajatlari tez o`sib bormokda, buni esa asosan soliq bilan koplashga tugri keladi. Masalan, Amerika kushma Shtatlarida 1929 yilda davlat xarajatlarining YAMM dagi xissasi 3% tashqil etgan. 1985 yilda esa 25% ni tashqil etgan. YA`ni davlat xarajatlari YAMM ga nisbatan juda tez usmokda.

j) Iqtisodiyotni barkarorlashtirish. Bu avvalombor iqtisodiyotning uchta katta kasalligiga – ishsizlik, inflyatsiya, siklli rivojlanish – karshi kurashishdir. Davlat uz kompetensiyasini realizatsiya kilib soliqlar va davlat xarajatlarini ustidan nazorat urnatib, iqtisodiyotdagi pul xajmini nazorat kilib iqtisodiy sikl tebranishlariga, ishsizlikning va inflyatsiyaning pasayishiga xarakat kiladi.

z) Iqtisodiyotni tartibga solish. Davlat xozirgi davrda uz mamlakati iqtisodiyotini jadal o`sish, boshka davlatlardan orkaga kolib ketmasligi uchun, avvalombor, iqtisodiy rivojlanishning prioritetlarini aniklashi kerak. Texnika, texnologiya, fanda chukur siljishlar sodir qilish, chukur strukturaviy kayta kurishlar, fundamental ilmiy izlanishlarini rivojlantirish, mamlakatni milliy manfaatlarini jaxon iqtisodiyotining salbiy ta`sirlaridan himoya qilishi kerak.

Davlatning iqtisodiyotga ta`sir qilish usullari va vositalari

Jaxon bankining prezidenti Djeyms D. Vulfenson shunday yezadi : «Davlat hamma vakt ham uz va`dasini bajarishga kodir emas. Kupgina mamlakatlar shu xulosaga keldilarki, bu sharoitda eng tugri yul davlatning rolini minimumga

keltirishdir. Xozirgi zamon uchun “samarali davlat” kerak. Bu shunday davlatki, bozorlarni jadal o`lishga sharoit yaratib beradi, xalqni esa tuk va baxtli yashashga imkon beradi. Davlat uz faoliyatini eng yaxshi bajara oladigan funksiyalariga karatishi kerak. Kungina davlatlar, jumladan Uzbekiston mamlakatining davlati ham, juda kam resurslarga ega bulib, juda kup muammoni xalq kilmokchi buladilar. Okibatda, foydadan kura kuprok zarar keltiradilar.

Davlat ishida yukori samaradorlikka erishish mumkin, kaysi paytdaki, bozor kuchlari va grajdanlarning ixtiyeriy uyushmalari xalq kilib bilmaydigan vazifalargagina davlat uz e`tiborini karatib, faoliyatini shunga periorientatsiya kilsa.

Yozef YE Shtiglits, jaxon bankining bosh iqtisodchisi aytganidek, davlat va bozor bir - birini tuldiradi. Davlat bozor mexanizmlari ishlashi uchun institutsional asoslarini yaratish uchun zarur. Bozor kilib biladigan ishni davlat qilishiga xojat yuk.

Bundan shunday xulosa kelib chikadi: davlat kuyidagi vazifalarni bajarishi kerak :

xukukiy asoslarni yaratish;

barkaror makroiqtisodiy situatsiyani saklash uchun siyosat yurgizish;

infrastruktura va sotsial xarakterdagi bazaviy xizmatlar uchun kapital mablag`larni amalga oshirish ;

ijtimoiy jixatdan himoya kilinmagan jamiyat a`zolarini kompleks tarzda himoya qilish;

atrof muxitni muxofaza qilish.

Tajriba shuni kursatadiki, mulkchilik xukuki kattik himoya kilinmaydigan sharoitda bozor samarali ishlay olmaydi. Buning uchun:

a) talon - taroj, zuravonlik va boshka jinoyatlardan kishilarni himoya kila bilish;

b) davlat apparatining uz boshimchaligidan himoya qilish (korrupsiya, noxak soliq solish, noma`kul uyin qoidalarini joriy qilish...);

v) adolatli va anik ishlovchi sud sistemasini ta'minlashdir.

Davlat monopolizmga karshi kurashibgina kolmay, balki uzi ham monopolist bulishi kerak emas. Kim bulishidan kat'iy nazar, xatto davlat ham monopolist bulsa, u tarakkiyetga oxir - okibat tusik buladi.

Davlat xalk uchun ochik va rangsiz (prozrachno'y), tinik bulishi kerak. Xalk davlat liderlariga taallukli xoxlagan ma'lumotni ola biladigan bulishlari kerak. Busiz ishonch bulmaydi, ishonchsiz esa davlat apparati uz ishini yaxshi tashqil eta olmaydi.

Dunening asosiy regionidagi davlatlarning asosiy muammolari:

a) Saxaradann pastda joylashgan Afrika davlatlari - davlatchilik krizisi. Bular uchun, avvalombor, ishlaydigan davlat iyerarxiyasini yaratish kerak.

b) Sharkiy Osiyo mamlakatlari - uz oldidagi traditsion vazifalarni yaxshi yechmokda, ammo yangi vazifalarni (atrof - muxitni himoya qilish, moliya sektorini reforma qilish) uddalay olish vazafasi turibdi.

v) Janubiy Osiyo – xaddan ortik bulgan tartibga solish mavjud. Davlat iqtisodiyotga aralashib korxonalarga ishlab chiqarish buyicha plan beradi. Davlat tasarrufida bulgan korxonalarning mavkei iqtisodiyotda katta, xususiy sektorda davlat xaddan tashkari kup narsani reglamentatsiya kiladi.

g) Hamkorlik davlatlar – davlat organlarining bir - biriga buysunishi sust, asosiy institutlar ishining samarasi past, jinoyatning usayetganligi, mulkchilik xukuklarining yemon himoya kilinayetganlikligi, qonuniy va normativ mexzanizmlarning tuturiksizligi.

d) Lotin Amerikasi davlatlari – asosiy muammo davlat xukuklarini detsentralizatsiya qilish. Bu birinchi navbatda Braziliya, Meksika kabi katta davlatlarga taaluklidir.

ye) Shimoliy Afrika va Yakin Shark - ishsizlik muammosi o'sib ketgan davlat apparatini kiskartirishga asosiy tusik. Bu region axoli tez usayetgan regionlardan biri. Biznesning o'sishi o'sib kelayetgan yosh kadrlarni hammasini ishlab chiqarishga jalb qilish imkoniyatiga ega emas. Okibatda axolining bir qismi

mamlakatni tashlab ketishmokka. Bir qismini esa davlat apparati sun'iy ravishda burtirish hisobidan ish bilan ta'minlab turibdi.

Uzbekiston hukumatiga keladigan bulsak, eng muxim muammolar kuyidagilardan iborat: davlat apparatning xaddan tashkari kattaligi, tatalitar ish prinsiplarining mavjudligi, raxbariyatda tatalitar mentalitetning mavjudligi, ishsizlik mummosini tez va salbiy okibatlersiz xal qilish zaruriyati, dunyo bozorlariga yul ochish kiyinligi, atrofni qoloq va nostabil davlatlar kurshab olganligi.

Davlatning iqtisodiyotga ta'sir etish usullari:

- xukukiy normalar (ularni joriy qilish, o'zgartirish...);
- dasturlar ishlab chikish (ilmiy, texnikaviy, sotsial, ekologik va boshkalar);
- informatsiya bilan ta'minlash;
- moliya - iqtisodiy richaglar orkali ta'sir etish (soliqlar, baxolar, foizlar...);
- davlat xaridlari qilish;
- limitlar, kvotalar, dotatsiya, subsidiyalar, investitsiyalar va boshkalar.

Xar kandy iqtisodiy tizimda davlat iqtisodiyotni tartibga solishga intiladi, ammo xar bir tizimda va davrda buning uziga xos uslublari, mexanizmlari, obyektlari bor.

Bozor iqtisodiyotida davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish qonunchilik, ijrochilik va nazorat qilish choralarining yigindisidan iborat bulib, bundan maksad sistemaning barkarorligini ta'minlash, shu bilan birga o'zgarib borayetgan sharoitga moslashtirishdan iborat.

Xozirgi zamonda davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning asosiy obyektlari kuyidagilardir:

- iqtisodiy sikl;
- xujalikning sektorli, tarmokli va regionli strukturasi;
- kapitalni jamgarish sharoiti;
- ish bilan ta'minlanganlik;
- pul muomalasi;
- tulov muvozanati;
- ilmiy - tekshirish ishlar;

- baxolar;
- raqobat sharoiti;
- ijtimoiy munosabatlar;
- mutaxassislarni tayyorlash va kayta tayyorlash;
- atrof - muxitni muxofaza qilish;
- tashqi iqtisodiy alokalar.

Albatta xar bir davrda va davlatda uziga xos obyektlar bulishi mumkin. Lekin , umuman olganda rivojlangan mamlakatlarda bu obyektlar soni kamayib bormokda.

Bozor infratuzilmasini davlat tomonidan qo`llab quvvatlash tizimi

Davlat tomonidan tartibga solish vositalarini kuyidagi 4 guruxga ajratadilar:

A) ma`muriy.

B) iqtisodiy.

V) psixologik.

G) xukukiy.

Ma`muriy vositalar davlat kuchiga tayanib ruxsat berish, ta`kiklash, majbur qilish choralaridan iboratdir. Eng rivojlangan davlatlarda ham bu vositalar kullaniladi. Masalan, Fransiyada hukumat Parij aglomeratsiyasida yangi yirik korxonalarni kurishni ta`kiklab kuygan, ya`ni litsenziya umuman bermaydi. Bunday kilinishga Parijning xaddan tashkari o`sib ketganligi sabab bulgan (shaxarda 10 milliondan ortik axoli yashaydi). 70 yillarda Parij Fransiyaning kariyb 1G`3 qism sanoatini berar edi. Shaxar ancha ifloslangan edi. Shuning uchun bu karor kabul kilingan. Ma`muriy choralar (yirik-yiriklari) ilgor davlatlarda kamdan - kam (odatda ekstremal) xolatda kullaniladi. Masalan, Yaponiyada II jaxon urushidan keyin katta konsernlarni majburan maydalashtirish chorasi amalga oshirilgan.

Mamlakatda xukukiy normalarini belgilash va bozor subyektlarining faoliyat qilishlari uchun tartib - qoidalarni ishlab chikish hukumatning asosiy

vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu uyin qoidalari takomillashtirib, o`zgartirib, yangi qonunlar kabul kilib davlat iqtisodiyotga kuchli ta`sir etadi.

Xozirgi zamonda iqtisodiyotni tartibga solishda psixologik vositalarning ham roli katta. Televideniye, matbuot, radio va boshka yullar bilan hukumat axolining psixologiyasiga, uning karor kabul qilishiga, uni o`zgartirishga va shu yul bilan iqtisodiyotga ta`sir qilishga xarakat kiladi.

Albatta iqtisodiyotga ta`sir qilishning asosiy vositalari bu iqtisodiy vositalardir. Ularni kuyida kengrok kuramiz.

Davlatning iqtisodiy siyosati iqtisodiyotni tartibga solishga karatilgan bulishi kerak. Davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solish xilma - xil siyosat va ta`sir shakllaridan foydalanadi:

- davlat tadbirkorligi;
- davlat xaridlari;
- soliq siyosati;
- moliya siyosati;
- pul - kredit siyosati;
- investitsiya siyosati;
- struktura siyosati;
- antimonopol siyosat;
- ilmiy texnika siyosati;
- programmalashtirish;
- baxo belgilash;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solish.

Davlat tadbirkorlik bilan shugullanishi uchun davlat uz mulkiga (korxonalariga) ega. Xozirgi iqtisodiyotda davlat mulkining xissasi anchagina. Odatda davlat mulki milliy ahamiyatiga ega bulgan, oldi – sotdi obykti bulmagan narsalardir (urmonlar, suvlar, parklar, tarixiy obidalar...).

Davlat kulida mamlakat uchun juda katta ahamiyat kasb etuvchi iqtisodiy obyektlar (aloka, enegetika, transport va xokazo tarmoklarda) yeki biznesmenlar investitsiya ajratishni, shugullanishni xoxlamaydigan soxalarda (kanallar kurish,

shaxar kanalizatsiyasi kabi) yexud juda kup fan xarajatlarini talab kiladigan soxalarda bulishi mumkin.

Davlat sektorini rivojlantirish davlatning iqtisodiyotni tartibga solish, jumladan, xususiy sektorga ta`sir qilishning muxim vositasidir. Davlat sektori struktura siyosatini olib borishda ham katta rol uynaydi. Davlat mulki davlat budjeti mablag`lari hisobiga yeki natsionalizatsiya hisobiga usadi.

Davlat xarid qilish orkali ham iqtisodiyotga juda kuchli ta`sir kiladi: u xususiy sektor uchun ish frontini kengaytiradi. Davlat xaridlari rivojlangan mamlakatlarda , avvalombor, armiya (xarbiy zakazlar) ni kulab quvvatlash uchun kerak. Bundan tashkari fermerlarni kullash uchun kishlok xujaligi tovarlarini davlat tomonidan xarid qilish ham keng tarkalgan. Ammo davlat mulki va davlat xaridi tizimi rivojlangan mamlakatlarda kiskarib bormokda. Davlatning kuchli bulishi uchun uzida katta mulkni olishi shart emas. Masalan, Shvetsiyada davlat kulida ishlab chiqarish fondlarining 5% mujassamlashgan, ammo u uz kanallari orkali milliy daromadining 80% ini kayta taksimlaydi, shuning uchun teng yarmi (40 %) ijtimoiy maksadlarga sarflanadi.

Pul - kredit siyosatining vositalari keyingi mavzularda kengrok utiladi, bunda fakat 3 tasini sanaymiz:

- hisob darajalarini tartibga solish;
- minimal rezerv xajmini urnatish va o`zgartirish;
- hukumat organlarining kimmatli kogoslar bozorida operatsiyalar qilish.

Budjet - soliq siyosati ham tartibga solishning juda kuchli kuroli, u siyosat daromadlar siyosati , xarajatlar siyosati va struktura siyosatlari bilan chambarchas boglangan.

Tashqi iqtisodiy alokalarni tartibga solish – bu eksporti, importini, kapital okimini, ish kuchi migratsiyasini, texnologiya okimini, valyuta munosabatlarini uz ichiga oladi.

Davlat iqtisodiyotni tartibga solishda soliqning aksincha yunalishdagi (davlatdan korxonaga) xarakati bulgan dotatsiya va subsidiyalar ham iqtisodiyotni tartibga solishning kurollaridir. Ammo buni juda extiyetkorlik bilan ishlatgan ma`kul.

Chunki u bokimandalik kayfiyatini rivojlantiradi. Sobik SSSR tajribasi buni yakkol kursatib berdi. Un yilliklar davomida berilgan dotatsiyalar sovet korxonalarining raqobatbardoshligini pasaytirib yubordi, maxsulot sifatini tushirib yubordi, texnika va texnologiyani esa konservatsiya kilib tashladi.

Iqtisodiyotga davlat tomonidan ta'sir etishning kiska muddatli usullaridan tashkari uzok muddatga muljallangan tartibga solish usullari ham ishlatiladi. Bunda struktura, ilmiy - texnikaviy siyosat olib boriladi. Bu siyosatlar ilmiy texnika tarakkiyati talablariga javob beradigan infrastrukturani yaratish, qoloq regionlarni rivojlantirish, samaradorlikni oshirish, milliy kapitalning raqobatbardoshligi oshirish, ITR talabiga javob beradigan kadrlarni tayyorlash kabi vazifalarga karatiladi. Bu avvalo rejalashtirishdir. Bunda kiskacha tarixga tuxtasak, u uch boskichdan iborat:

A) direktiv rejalashtirish (SSSRda 1928 – 1990 yil, Fransiya 1945 - 1956 yil.). Bunda reja majburiy bulib, asosan ishlab chiqarish xajmiga taalukli bulgan, ya'ni plan - zakaz.

B) indekativ (rekomendatsiya) plan, bunda reja rekomendatsiya xarakteriga ega bulgan, ya'ni ixtiyeriy bulgan. Shu bilan davlat va xususiy korxonalar uz pozitsiyalarini koordinatsiya kilganlar. (bu ayrim davlatlarda xozir ham bor, ammo asosan 80 yillargacha bulgan).

V) xozirgi boskich, strategik rejalashtirish yeki programmalashtirishdir. Bunda reja oriyentir xarakterga ega. Rivojlangan mamlakatlarning iqtisodiyotining ochiklik darajasi juda yukori, shuning uchun davlatning manevr qilish imkoniyati chegaralangan.

Programmalashtirish davlat tomonidan iqtisodiyotni tartibga solishning eng oliy shaklidir. Uning vazifasi davlat tomonidan tartibga solishning butun elementlarini global maksadlar uchun kompleks ishlatishdan iborat.

Masalan, Fransiyada 1993 - 1997 yillar uchun ishlab chiqarilgan programmada asosiy maksadlar – maorif, ilmiy tadjikotlar, axolining ijtimoiy himoyalash, mamlakat territoriyasini obodonlashtirish va ma'muriy xizmatlarni yangilash. Hamma narsa birinchi navbatda shunga buysundirilgan.

Programmallashtirish uchun kabul kilinadigan dasturlar vakt nuktai nazaridan kiska mudatli (1 yilgacha), urta muddatli (5 yilgacha) va uzok muddatali dasturlarga bulinadi. Programmallashtirishning obykti tarmok (masalan, kishlok xujaligi, turizm) , regioni (Masalan, Alyaskani rivojlantirish dasturi), ijtimoiy soxa (Masalan, Yaponiyadagi oliy ta`limni rivojlantrish dasturi), ilmiy tadjikot yunalishi (masalan, yadroenergetika) bulishi mumkin.

Dasturlar odatdagi va favkuloddagi (masalan, Germaniyaga GDR kushilgach, "«Yangi yerlarni strukturaviy kayta kurish va xususiylashtirish dasturi"») programmalar buladi.

Davlat tomonidan tartibga solishning chegarasi bormi? Xa, u xususiy mulk egasining mafaatiga mos tushsa, bu faoliyat samara beradi, bulmasa yuk.

Programmallashtirishda 4 sektor ajratiladi:

- a) real;
- b) budjet;
- v) monitar;
- g) tulov balans.

Xulosa

Xulosa ornida shuni aytishimiz mumkinki bozor iqtisodiyatining xozirgi zamon uchun “samarali davlat” kerak. Bu shunday davlatki, bozorlarni jadal o`lishga sharoit yaratib beradi, xalkni esa tuk va baxtli yashashga imkon beradi. Davlat uz faoliyatini eng yaxshi bajara oladigan funksiyalariga karatishi kerak. Kupgina davlatlar, jumladan Uzbekiston mamlakatining davlati ham, juda kam resurslarga ega bulib, juda kup muammoni xal kilmokchi buladilar. Okibatda, foydadan kura kuprok zarar keltiradilar. Davlat xarid qilish orkali ham iqtisodiyotga juda kuchli ta`sir kiladi: u xususiy sektor uchun ish frontini kengaytiradi. Davlat xaridlari rivojlangan mamlakatlarda , avvalombor, armiya (xarbiy zakazlar) ni kulab quvvatlash uchun kerak. Bundan tashkari fermerlarni kullash uchun kishlok xujaligi tovarlarini davlat tomonidan xarid qilish ham keng tarkalgan. Ammo davlat mulki va davlat xaridi tizimi rivojlangan mamlakatlarda kiskarib bormokda. Davlatning kuchli bulishi uchun uzida katta mulkni olishi shart emas. Masalan, Shvetsiyada davlat kulida ishlab chiqarish fondlarining 5% mujassamlashgan, ammo u uz kanallari orkali milliy daromadining 80% ini kayta taksimlaydi, shuning uchun teng yarmi (40 %) ijtimoiy maksadlarga sarflanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anufriyev, A.I., Fattaxov A.A. «Strategiirazvitii optovo`x ro`nkov» T, 2002, TGEU.
2. Chjen. V A. Mirzaaxmedov E «Ro`nochno`ye infrastukturo` Uzbekistana», T, 1996
3. Chjen V.A «Xususiylashtirish asoslari» T, 1996
4. Rasulov M «Bozor iqtisodiyoti asoslari», T, Uzbekiston, 1999
5. www.ziynet.uz